XALQ DEPUTATLARI BALIQCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-may VI-44-54-1-18-K/24 Baliqchi tumani

Baliqchi tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktyabrdagi PQ-405-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonliqarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 1-fevraldagi 8-1-18-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra tuman hududining umumiy perimetri 403 341,7 metr, umumiy maydoni 32798,5 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Baliqchi shaharchasining umumiy peremetri 13109,33 metr, umumiy maydoni 626,24 gektar.

Chinobod shaharchasining umumiy peremetri 9934,95 metr, umumiy maydoni 326,93 gektar.

Xo’jaobod shaharchasining umumiy peremetri 10538,56 metr, umumiy maydoni 307,63 gektar.

Baliqchi qishlog‘ining umumiy peremetri 50781,43 metr, umumiy maydoni 436,98 gektar.

Bo’stonobod qishlog‘ining umumiy peremetri 45484,28 metr, umumiy maydoni 6310,32 gektar.

Chinobod qishlog‘ining umumiy peremetri 57800,59 metr, umumiy maydoni 3499,86 gektar.

Eski Haqqulobod qishlog‘ining umumiy peremetri 47329,87 metr, umumiy maydoni 3643,38 gektar.

Guliston qishlog‘ining umumiy peremetri 28653,70 metr, umumiy maydoni 2699,27 gektar.

Islomobod qishlog‘ining umumiy peremetri 41851,65 metr, umumiy maydoni 1937,13 gektar.

O’rmonbek qishlog‘ining umumiy peremetri 24916,76 metr, umumiy maydoni 1993,09 gektar.

Olimbek qishlog‘ining umumiy peremetri 38174,40 metr, umumiy maydoni 4368,84 gektar.

Siza qishlog‘ining umumiy peremetri 37766,19 metr, umumiy maydoni 2720,81 gektar ekanligi aniqlandi.

Baliqchi tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash jarayonida har bir shaharcha va qishloqlar ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘laydigan chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va yo‘nalishi keltirilib, burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Tumani hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Baliqchi tuman Kengashi

QAROR QILADI

1.Baliqchi tumani hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari L.Jo‘raevning Baliqchi tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan mavjud shaharcha va qishloqlarning chegarlarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimining 2024-yil 1-fevraldagi 8-1-18-F/24-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan Ishchi guruh tarkibining 2024 yil 29-apreldagi 157-sonli yig‘ilish bayoni, 2024-yil 01-maydagi tuman komissiyasining xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Baliqchi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risida keltirilgan ma’lumotlar 1-ilovaga, loyihaviy sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4.Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori “G’alaba” gazetasida hamda tuman hokimligining internetidagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini taminlash tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ABDURAYIMOV
JASURBEK ODILOVICH

Xalq deputatlari Baliqchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-maydagi
VI-44-54-1-18-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Baliqchi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

MA’LUMOT

Shaharning umumiy peremetri 13109,33 metr, umumiy maydoni 626,24 gektar ekanligi aniqlandi.

Baliqchi shahrining umumiy peremetri 13109,33 metr, umumiy maydoni 626,24 gektar.

Shaharchalarning umumiy peremetri 20473,52 metr, umumiy maydoni 1260,80 gektar ekanligi aniqlandi.

Shu jumladan:

Chinobod shaharchasining umumiy peremetri 9934,95 metr, umumiy maydoni 326,93 gektar.

Xo‘jaobod shaharchasining umumiy peremetri 10538,56 metr, umumiy maydoni 307,63 gektar.

Qishloq yerlarining umumiy peremetri 369758,88 metr, umumiy maydoni 31537,67 gektar ekanligi aniqlandi.

Shu jumladan:

Baliqchi qishlog‘ining umumiy peremetri 50781,43 metr, umumiy maydoni 436,98 gektar.

Bo‘stonobod qishlog‘ining umumiy peremetri 45484,28 metr, umumiy maydoni 6310,32 gektar.

Chinobod qishlog‘ining umumiy peremetri 57800,59 metr, umumiy maydoni 3499,86 gektar.

Eski Haqqulobod qishlog‘ining umumiy peremetri 47329,87 metr, umumiy maydoni 3643,38 gektar.

Guliston qishlog‘ining umumiy peremetri 28653,70 metr, umumiy maydoni 2699,27 gektar.

Islomobod qishlog‘ining umumiy peremetri 41851,65 metr, umumiy maydoni 1937,13 gektar.

O‘rmonbek qishlog‘ining umumiy peremetri 24916,76 metr, umumiy maydoni 1993,09 gektar.


Olimbek qishlog‘ining umumiy peremetri 38174,40 metr, umumiy maydoni 4368,84 gektar.

Siza qishlog‘ining umumiy peremetri37766,19 metr, umumiy maydoni 2720,81 gektar.

Xalq deputatlari Baliqchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-maydagi
VI-44-54-1-18-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Baliqchi tumanining
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	*Izboskan tumani yerlari*
B dan D gacha	*Oltinko'l tumani yerlari*
D dan E gacha	*Shahrixon tumani yerlari*
E dan F gacha	*Bo'ston tumani yerlari*
F dan G gacha	*Ulug'nor tumani yerlari*
G dan A gacha	*Namangan viloyati yerlari*